


## RAUF PARFI SHE'RLARNING ZAMONAVIYLIGI VA UMRBOQIYLIGI



*Keldiboyeva Shaxnoza Sherpulat qizi  
O'zbekiston - Finlandiya pedagogika institut  
Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti  
1- bosqich talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatida shakl va mazmunning uyg'unligini, zamonaviyilagini tahlil qilamiz. Zamonaviy she'riyatni tahlil qilar ekanmiz, unda shakl-mazmunga ta'sir etgan hollari ko'p. Ammo bu ijodkorni modernistga chiqarib qo'ymaslik kerak. Chunki har qanday fikrning ham tub ildizi bo'lgani kabi adabiyotda ham an'anaviy mohiyat saqlab qolingan. Agar modernizmning bir xususiyati she'riyatni o'zgacha shakliy qoliplarga solish bo'lsa, biz Rauf Parfi ijodining shunday xususiyatlarini shoir ijodi misolida yoritishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** modernizm, she'riy shakl, janr, she'riy tizm, lirika, obraz, ramz, badiiy san'at.

Shakliy jihatdan yangilanishlarga egadir. Badiiy asarda shakl bir nechta maqsadlarga xizmat qiladi:

har bitta ijodkorning individual o'ziga xosligini ko'rsatish ;

badiiy asarning ta'sir etuvchi va kitobxon ongida o'zgacha mohiyat ifodalovchi qolipini yaratish ;

badiiy asar talablaridan kelib chiqqan holda g'oya hajmiga mos shakl berish ;

janr talablarini janrning o'ziga xos shaklida (vaznda) namoyon etish ;

Badiiy asar shakli va uning asardagi vazifasiga adabiyotshunoslar tomonidan ta'rif berilar ekan, Dilmurod Qur'onov ta'kidlagan quyidagi qoida shu kungacha asosiy qolip vazifasini o'tab keladi : „San'atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda bo'lg'usi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrog'i , bo'lg'usi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi “. Zamonaviy she'riyatni tahlil qilar ekanmiz, unda shaklning mazmuniga ta'sir etgan hollari ko'p. Ammo bu ijodkorni modernistga chiqarib qo'ymasligi kerak. Chunki har qanday fikrning ham tub ildizi bo'lgani kabi adabiyotda ham an'anaviy mohiyat saqlab qolingan holdir, shoir ruhiyat shaklini ifodalash uchun she'r shaklini ham o'zgartirishi mumkin .

Rauf Parfi ijodida ham turli vaznlarda yaratilgan na'munalarga duch kelamiz . Mazmun qirrasi o'tkirligi , murakkab ramziy obrazlarning jonlanishi ijodkor ijodining asosiy belgisi sifatida shoirga XX asrning dastlabki modern ijodkorlaridan biri deb qarashadi . Agar modernizmning bir xususiyati she'riyatni o'zgacha shakliy qoliplarga solish bo'lsa , biz Rauf Parfi ijodining shunday xususiyatlarini tahlil ijodi misolida yoritishga harakat qilamiz .

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida o'zining betakror she'rlari bilan o'ziga munosib o'rniga ega bo'lgan shoirlardan biri Rauf Parfidir .

Rauf Parfi taqdiriga she'riyat muxlislarinig suyukli shoiri bo'lishdek baxt bitilgan edi .

„Rauf Parfi she'riyati “ degan ta'birning o'ziyoq shoirning adabiy merosi , go'zal she'rlari , ijodining umumpafosi to'g'risida mulohazalar yuritishga undaydi . Shoир she'rlarida Vatan , ona , inson , tabiat mavzulari yetakchilik qiladi . Bu mavzular doirasida qancha mulohaza qilmaylik , baxs yuritmaylik oxiriga yeta olmaymiz .

Vatan - tuyg'usini hamma har xil tushunganidek , Rauf Parfi ham Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini , his -tuyg'ularini o'z she'rlarida qalamga oladi . Rauf Parfi qalamiga mansub „ Turkiston yodi “ she'rida ona xalqimiz boshidan kechirgan azob - uqubatlarni , qynoqlarni , ogpir kunlarni boshimizga solgan odamlarni , mard , jasur ajdodlarimizni yodga olib qog'ozga tushiradi .

Yana yiroqlarga chorlaydir moziy ,  
Vatan tushunchasi kelar yetaklab .

Ayrilgan , xo'rangan ulus ovozin ,  
Shoirning beshigi aytar ertaklar .  
„ O'g'lon da ' vo qilganlar ... “ so'zlar shoir .  
„ Oqni qora deganlar ... “ aiting , kimlar ?  
Maqbara boshimga yiqilar hozir ,  
Yana tovush : „ Harom yegan hokimlar ... “

Ushbu she'r 11 bo'g'indan iborat , barmoq vaznida yozilgan . Ushbu she'rdagi jumlalar ma'nosiga e'tibor bersak butun tarix ko'z o'ngimizda qayta gavdalanadi . Turon . Turkiston , Vatan . Ko'z o'ngimizda turkiylarning qadimiyatdan Ona yeri Turk dunyosining tarixiy Vatani - salobatli jug'rofij hudud namoyon bo'ladi . Turkiston g'oyasi xalqlarimizning azaliy muqaddas orzusi , milliy mafkurasidir . Ko'plab ijodkorlar bahor faslidan ilhomlanib ijod qilsa , Rauf Parfi har qanday tabiat hodisasidan ilhomlanadi . Buning dalili sifatida uning quyidagi she'rlarini keltirishimiz mumkin : „ Tong otmoqda “ ,

, „Yomg‘ir yog‘ar“ , „Yoz kechasi“ , „Aks sado“ , „Sukunat“ va boshqalar . Ulardan biri „Yomg‘ir yog‘ar“ she ‘rini tahlil qilib ko‘ramiz.

Shoir o‘z kechinmalarini ifodalashda tabiatga murojaat qilishini „Yomg‘ir yog‘ar“ she ‘rida ham ko‘rish mumkin . Kim hayotida yomg‘irga duch kelmagan ? Kim ham yomg‘ir ostida qolib ketmagan ? Qo‘lida soyoboni bo‘lмаган har qanday odamning sochlari , boshiga yomg‘ir tomchilari tomchilaydi. Kayfiyati chog‘ odam bundan huzur topishi , aks holda , asabiylashishi mumkin . She‘rdagi „Yomg‘ir yog‘ar shig‘g‘alab yog‘ar“ misrasi 6 marta takrorlanadi . Bunday takror misoli yomg‘irning yog‘ish tovushini eshitishga , yomg‘irning yog‘ish tovushini eshitishga , yomg‘irning yerga tushish harakatini tasavvur etishga yordam beradi . Xo‘sh shoir tasvirlayotgan yomg‘ir ostida qolgan „men“ ning kayfiyati qanday ? U qayg‘udami yoki quvonchdami ? Bu jumboq keyingi bandlarda ochiladi . She ‘rning lirik qahramoni yomg‘irdek go‘zal tabiat hodisasiga butun vujudi bilan qo‘shiladi . Chunki u : „Men unga ochaman bag‘rimni“ , deb e ‘tirof etadi . Demak , uning qalbida o‘zgacha bir zavq - shavq paydo bo‘ladi .

Buning ta ’sirida yomg‘ir unutiladi . Yomg‘irga lirik qahramon asir bo‘ladi . Eng muhim , ushbu ruhiy vaziyat ortidan she ‘r tug‘iladi .

Yomg‘ir yog‘ar , shig‘alab yog‘ar ,

Tomchilar tomchilar sochimga .

Yomg‘ir yog‘ar , shig‘alab yog‘ar

Ham qayg‘umga , ham quvonchimga .

Shuni ta ’kidlab o‘tish joizki , shoirning she ‘rlari mavzularining ma ‘noligi , she ‘riy shaklining soddaligi sababli tez yod olishligi bilan ham ajralib turadi . Har bir she ‘rda chuqur ma ‘no yotadi . Shunday xususiyatlari bilan ham umrboqiy she ‘rlar sarasiga kira oladi . Kitobxonlarning shunday kitoblarga talabchanligi , she ‘rlarining zamonaviyligini taminlaydi .

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov Dilmurod . „Adabiyot nazariyasi asoslari “ . -Toshkent : Navoiy universiteti , 2018
2. Rauf Parfi . „Turkiston ruhi“ . „Sharq “ . Toshkent : -2013 , 41 - b
3. Rahimjonov N . Mustaqillik davri o‘zbek she ‘riyati . -Toshkent : Fan , 2007
4. Yo‘ldoshev Q. Yo‘ldoshova M ., Badiiy tahlil asoslari . -Toshkent , 2016 .
5. Rauf Parfi . Sakina (she ‘rlar) . - Toshkent : Muhammadiy , 2013 .